



## METALLAR MAVZUSINI AKT VOSITALARIDAN FOYDALANIB O'QITISH METODIKASI

Tojiboyeva Zuxra Zokirjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU, 4-kurs talabasi

[tojiboyevazuxra8@gmail.com](mailto:tojiboyevazuxra8@gmail.com)

Mamadaliyeva Nodira Isakovna

*Nizomiy nomidagi TDPU, dotsent*  
[n.mamadaliyeva@yandex.ru](mailto:n.mamadaliyeva@yandex.ru)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada umumta'lif mifik kimyo kursining metallar mavzusini AKT vositalaridan foydalananib o'qitish metodikasi haqida qisqacha bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** Metod, kommunikatsiya, texnologiya, noan'anaviy o'qitish shakli, individual yondashuv.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье кратко описана методика преподавания предмета металлы в общеобразовательном курсе химии с использованием средств ИКТ.*

**Ключевые слова:** Метод, общение, технология, нетрадиционная форма обучения, индивидуальный подход.

### ANNOTATION

*This article briefly describes the methodology for teaching the subject of metals in a school-wide chemistry course using ICT tools.*

**Key words:** Method, communication, technology, non-traditional form of teaching, individual approach.

Bugungi kunda butun dunyo pedagog olimlari mavjud an'anaviy ta'limning yaroqsiz darajada eskirib qolganligini, yaqin kelajakda yangi g'oyalarga va ichki qurilmaga asoslangan pedagogika vujudga kelishini e'tirof etmoqdalar. Buning



uchun ta'lismu muassasalarida, ilmiy-nazariy tadqiqot maydonchalarida o'qitishning yangi-yangi usul va vositalari sinab ko'rilmoxda. Ammo natijalar hali sezilarli darajada yuqori emas. Xo'sh buning asl sababi nimada? Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning interaktiv usullari ta'lismarayonida qo'llanilayotganiga ancha bo'ldi. Lekin shunga qaramay, aytganimizdek samaradorlik darajasi unchalik yuqori emas. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bugun barcha pedagoglarning oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri bu o'quvchilarga sifatli, qiziqarli va eslab qolish oson bo'lgan ma'lumotlarni berish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish va ta'lismarayonida o'qitishga yo'naltirishdan iborat.

Metod – (yunoncha “metodos” bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) voqelikni amaliy va nazariy egallah, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

**Metallar mavzusini o'qitishda AKT vositalaridan foydalanishning maqsadi:** Umumta'lim maktabalarida Metallar mavzusini o'qitishda o'quvchilar ongida metallar bilan bog'liq tushunchalar, atamalar, qonunlar, nazariyalarni shakllantirish va rivojlantirish bilan birga axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali vizual yoki audiovizual ma'lumotlarni to'plash, fikrlash va xulosa chiqarish bilan umumiyligini kimyoga oid bilimlarni puxta o'zlashtirish va mustaqil fikr yuritish, o'rganish kabi odatlarni o'quvchilarda shakllantirishga yordam berish.

Metallar mavzusini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishdan avval biz pedagogik texnologiya va kommunikatsion texnologiya tushunchalarini bir-biridan farqlab olishimiz kerak. Kimyo fanlarida axborot kommunikatsion texnologiya vositalarini qo'llash o'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan



mavzularni axborot kommunikatsion vositalar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishi va tushunishlarini osonlashtirish uchun qulaylik yaratishdir. O'quvchilarning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la-to'kis namoyon etishlari va butun kuch-g'ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta'lism-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur. An'anaviy tarzdagi o'qituvchining faolligi va barcha materialni tushuntirishga harakat qilishi bilan bog'liq bo'lgan darslarning o'rniga o'quvchining faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan noan'anaviy darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzARB masalalardan biridir. Endilikda o'qitish jarayonida o'quvchilarni zeriktirib qo'ymaydigan, fikrlashga, mustaqil ishlashga yo'naltiradigan har xil metodlar va o'qitish vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi metodlar, pedagogik texnologiyalarni qo'llab, noan'anaviy usulda o'qitish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi, mustaqil fikrlash va mustaqil nutq so'zlash qobiliyati paydo bo'lishiga turki bo'ladi. Innovatsion texnologiyalarga asoslangan darslar nafaqat o'quv jarayoniga ilmiylikni ta'minlovchi vosita balki uslubiy hamda o'quv jarayonining sifatini belgilaydi va o'quv ishlarini takomillashtirishga qaratilgan, uslubiy va ilmiy tadqiqot ishlarining integratsiyalashishini ta'minlaydi.

\* II- guruhning asosiy guruhchasi elementlari  
bo'limi mavzusini AKT yordamida o'qitish metodikasi





**Pedagogik texnologiya** — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P. Bespalko).

M.Ochilov "Pedagogik texnologiya" – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lif shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lif maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir", degan ta'rifni beradi.

**Axborot kommunikatsiya texnologiyalari** - bu turli xil qurilmalar, mexanizmlar, usullar va ma'lumotlarni qayta ishslash algoritmlarini tavsiflovchi umumiyl tushuncha.

O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish ta'lif sifatini oshiruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda har qanday mifik intizomi bo'yicha o'qituvchi AKTdan foydalangan holda dars tayyorlash va o'tkazishi kerak. AKTdan foydalangan dars ko'rgazmali, rang-barang, ma'lumotli, interaktiv bo'lib, o'qituvchi va o'quvchining vaqtini tejaydi, o'quvchiga o'z tezligida ishslashga imkon beradi, o'qituvchiga o'quvchi bilan har xil va individual ravishda ishslashga imkon beradi, o'quv natijalarini tezkor kuzatib borish va baholash imkoniyatini yaratadi.



Maktab yoshidagi bolalar bugungi kunda turli xil axborot texnologiyalari va turli xil texnik vositalar bilan tanishishadi, bu esa kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda axborotni qabul qilishga tayyorligini ko'rsatadi. O'quvchilarning metallar mavzusiga oid bilim va qiziqishlarini hisobga olgan holda multimedia, slayd hamda rasmi, jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni berish asosida bolaning axborot texnologiyalariga bo'lgan munosabatini oshirish, individual fikrashi va nutqini oshirishga yordam beradi. Mavzuni tushuntirishning oddiy va qiziqarli, tushunarli usullarini tashkil etish, takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hamda maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan sinflar orasida o'tkaziladigan viktorinalar, tadbirlar ta'limning sifat va samaradorligini oshiradi va shu bilan birga o'quvchilarning epchillik, ma'lumotlarni anglay olish va hushyorlik qobiliyatlarini mustahkamlaydi. AKT texnologiyalarini maktab amaliyotiga joriy etish, modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki o'quvchining shaxsiy intellektual va ijobiyligi salohiyatini ochib berishga, axborot salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

### O'quv jarayonida AKTdan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quvchilarning darsda va darsdan keyin bilim faolligini oshirish;
- mavzuga doimiy qiziqishni saqlab qolish;
- turli fanlar bo'yicha darslarda ko'rib chiqiladigan murakkab jarayonlar va hodisalarini modellashtirish va tasavvur qilish;
- o'quvchilarni mustaqil izlash, internetda kerakli ma'lumotlarni tanlash va tahlil qilish bilan shug'ullanish;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o'quvchilarda umumiyligi va axborot madaniyatini shakllantirish.

Ta'lim sohasida AKT vositalarini qo'llagan holda dars mashg'ulotlarini olib borish jarayonida o'qituvchidan o'z egallagan yo'nalishida yetarlicha bilimga ega bo'lishi bilan birga kompyuter texnologiyalarini puxta bilishi ham talab etiladi. Hozirgi axborotlashgan davrda yashar ekanmiz, o'quvchilarga ham o'zlari hayotini ularsiz tasavvur qila olmaydigan



vositalar kompyuter, uyali telefon, turli xil planshetlar yordamida ma'lumotlar berish har jihatdan samarali yo'l deb o'layman.

O'quvchi ko'rgan narsasini ko'proq eslab qoladi, biz rangli va qiziqarli qilib tayyorlangan slaydlar, videolar, multimedia vositalaridan foydalanib dars mashg'ulotlarini olib borsak, an'anaviy darslardan farqli ravishda sifatli va o'quvchi tushunishi oson bo'lgan darsni tashkil qilgan bo'lamic degan fikrdaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulova Feruza Ilhom qizi. "Umumta'lim maktablarda "Metallar mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanish". Buxoro Davlat Universiteti, 2020 yil.
2. Litvin Irina Igorevna. <https://hozir.org/talabaning-axborot-kompetentsiyasining-asosiy-komponentlari-v2.html>. Sankt-Peterburg
3. Jumaqul Allayev. "Axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositalari asosida kimyo mashg'ulotlarini tashkil etish". ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 , 23 pag.